

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki kuzatuv kengashining
2024 yil 26 apreldagi 68-son qaroriga
4-ILOVA

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining
likvidlilikni boshqarish qo‘mitasi to‘g‘risida
NIZOM**
(yangi tahriri)

Muqaddima

- 1-§ Umumiy qoidalar
- 2-§. Qo‘mita tarkibi va uni tuzish
- 3-§. Qo‘mitaning vazifalari
- 4-§. Qo‘mita a’zolarining huquq va majburiyatlar
- 5-§. Qo‘mita a’zolarining javobgarligi
- 6-§. Qo‘mita ishini tashkil etish va majlisini o‘tkazish
- 7-§. Bank boshqaruvi va Bankning kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar
- 8-§. Yakuniy qoidalar.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” qonuni, “Tijorat banklarining likvidlilikini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida nizom” (*Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 13 avgustda 2709-ton bilan ro‘yxatga olingan*) asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) likvidlilikni boshqarish qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) maqomi, tarkibi, vazifalari, ishslash tartibi, Bankning boshqa boshqarish organlari bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek a’zolarining huquqi, majburiyati va javobgarligini belgilaydi.

1-§ Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalilanadi:

Bosh bank – Bank boshqaruvi apparati;

bank xizmatlari ofisi – Bankning Amaliyot boshqarmasi va bank xizmatlari ofislari.

2. Qo‘mita Bankning doimiy kollegial organi bo‘lib, bank likvidlilikini samarali boshqarishni ta’minlash maqsadida bank xizmatlari ofislari va Bosh bank tarkibiy tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, Bank resurslari va depozit portfelini boshqaradi.

3. Qo‘mita o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi, Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi qarorlari, Bank ichki normativ hujjatlariga hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

2-§. Qo‘mita tarkibi va uni tuzish

4. Qo‘mita faoliyatiga Bank boshqaruvi raisi rahbarlik qiladi.

Qo‘mita 5 kishidan kam bo‘lmagan tarkibda tuzilib, unga Bank boshqaruvi raisining o‘rnbosarlari va Bosh bank tarkibiy tuzilmalari rahbarlari kiritiladi, bunda G‘aznachilik departamenti direktori Qo‘mita tarkibida albatta bo‘lishi lozim. Qo‘mitaning shaxsiy tarkibi Bank

boshqaruvi raisining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Qo‘mita a‘zosining xizmat safari, mehnat ta’tili va mehnatga layoqatsizlik davrida, shunungdek boshqa vaqtincha ishda bo‘lmagan holatdagi davrida uning lavozim majburiyatlarini vaqtincha bajarayotgan xodimga uning Qo‘mita a‘zosi sifatidagi funksiyalarini ham bajarish yuklatiladi. Qo‘mita a‘zosi ishdan bo‘shaganda yoki boshqa lavozimga o‘tkazilganda uning o‘rniga yangi tayinlangan xodim avtomatik ravishda Qo‘mita tarkibiga kiritiladi.

3-§. Qo‘mitaning vazifalari

5. Qo‘mita quyidagi masalalarni ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha qaror qabul qiladi:
 - a) Bankning likvidlilikni boshqarish siyosatiga muvofiq likvidlilik bo‘yicha Bankning umumiy strategiyasini amalga oshirish;
 - b) tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda aktivlar va passivlarni boshqarish bo‘yicha taktik usullarni qo‘llash;
 - d) aktiv operatsiyalarni inobatga olgan holda bank xizmatlari ofislari va moliyaviy instrumentlar o‘rtasida bo‘sh resurslarni optimal taqsimlash;
 - e) Bankning jalb qilingan va joylashtirilgan resurslari holati;
 - f) Bankning aktiv va passivlari o‘rtasidagi muvozanatning joriy holati;
 - g) Bankning likvidlilik pozitsiyasi holati;
 - h) kontragentlar oldidagi majburiyatlar bo‘yicha o‘z vaqtida va to‘liq bajarish uchun Bank resurs bazasining yetarlilik holati;
 - i) mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda Bank likvidliliginini boshqarish;
 - j) aktivlar va passivlarni likvidlilik tavakkalchiligining maqbul darajasida samarali boshqarishni ta’minlash uchun bank xizmatlari ofislari va Bosh bankning tarkibiy tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;
 - k) likvidlilikni zaruriy darajada saqlab turgan holda aktiv operatsiyalarni moliyalashtirish;
 - l) hamkor banklar (korrespondent banklar) bilan pul bozoridagi operatsiyalar va valyuta operatsiyalari bo‘yicha bitim tuzish;
 - m) banklararo depozitga, keyinchalik Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlashga taqdim etgan holda, limit belgilash;
 - n) banklararo depozit bozoriga, Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan limit doirasida, mablag‘ni joylashtirish va jalb qilish;
 - o) yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari bo‘yicha foiz stavkani belgilash;
 - p) yuridik shaxslar bilan Bankning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish(“svop” operatsiyalari va boshqa operatsiyalar);
 - q) mijozlarga ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankida mijozlar topshiriqlarini bajarganlik uchun komission to‘lovlar tariflari”ning ayrim bandlari bo‘yicha individual shartlar asosida

komission to‘lovlar tarifini o‘rnatish;

r) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan elektron shaklda chiqarilgan emissiyaviy davlat qimmatli qog‘ozlari va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan elektron shaklda chiqarilgan emissiyaviy obligatsiyalarni sotib olish, sotish, muddatidan oldin so‘ndirish, REPO-bitimini tuzish va garovga qo‘yish;

s) Qo‘mita vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar.

4-§. Qo‘mita a’zolarining huquq va majburiyatları

6. Qo‘mita a‘zolari Qo‘mita majlisining kun tartibiga kiritilgan masalalarni tayyorlash jarayonida, ular bo‘yicha qaror qabul qilishda va ijrosini amalga oshirishda ishtirok etadi.

7. Qo‘mita raisi Qo‘mitaning ish faoliyatini tashkil etadi, shu jumladan:

- a) Qo‘mitaning yillik ish rejasini tasdiqlaydi;
- b) Qo‘mita majlisini chaqiradi va unga raislik qiladi;
- d) Qo‘mita majlisining kun tartibini belgilaydi;
- e) Qo‘mita majlisini bayonnomasini imzolaydi;
- f) Qo‘mita qarorlari ijrosining nazoratini tashkil qiladi;

g) Qo‘mita ish faoliyati yuzasidan Bank boshqaruvi va Bankning kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

8. Qo‘mita a’zolarining huquqlari:

- a) Qo‘mita majlisi kun tartibiga masalani kiritish;
- b) bank xizmatlari ofislari va Bosh bank tarkibiy tuzilmalaridan Bank faoliyatiga oid zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni olish;
- d) Qo‘mita majlisida ko‘rilayotgan masala yuzasidan o‘zining boshqalardan farqli fikrini ushbu majlis bayonnomasiga kiritishni talab qilish;
- e) O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va Bank ichki normativ hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

9. Qo‘mita a’zolarining majburiyatları:

- a) Bankning kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan likvidlilik siyosatiga amal qilish;
- b) Bankka nisbatan xolis bo‘lish, ya’ni uchinchi shaxs manfaatini ko‘zlab o‘z mansabidan foydalanmaslik;
- d) Qo‘mitadagi faoliyati davomida unga ma’lum bo‘lib qolgan Bankka oid maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslikka amal qilish.

10. G‘aznachilik departamenti Qo‘mitaning ishchi organi sifatida Qo‘mita majlisi kun tartibidagi masalalar bo‘yicha hujjatlarni to‘playdi (yig‘adi) va ularni Qo‘mita majlisiga kiritadi, Qo‘mita majlislari bayonnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi va saqlaydi.

5-§. Qo‘mita a’zolarining javobgarligi

11. Qo‘mita raisi Qo‘mita majlisi o‘tkazilishini tashkil etish uchun javobgar hisoblanadi.
12. Qo‘mita a’zosi Qo‘mitaning boshqa a’zolari bilan birgalikda Qo‘mita majlislarida qabul qilingan qaror uchun O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

6-§. Qo‘mita ishini tashkil etish va majlisini o‘tkazish

13. Qo‘mita majlisi tasdiqlangan yillik rejada belgilangan muddatda va, zaruriyat paydo bo‘lganda, Qo‘mita vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha operativ qaror qabul qilinadigan holatda, lekin haftada kamida bir marta o‘tkaziladi.
14. Qo‘mita Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi tomonidan yuklatilgan topshiriqlarni bajarish maqsadida Bosh bankning kredit komissiyasi bilan, teng sharoitlarda, birgalikda faoliyat yuritadi.
15. Qo‘mita o‘ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, o‘rnatilgan tartibga amal qilgan holda funksiyalarini bajarish uchun bank xizmatlari ofislari va Bosh bankning tarkibiy tuzilmalaridan bank faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha kerakli ma’lumotlar olishga haqli hisoblanadi.
16. Qo‘mita majlisi Qo‘mita a’zolarining uchdan ikki qismi hozir bo‘lganda o‘tkazilishi mumkin.
17. Qo‘mita uning barcha a’zolari roziligi bilan qaror qabul qiladi.

Ushbu Nizom 5-bandining “l”, “m”, “n” va “p” kichik bandlarida keltirilgan masalalar bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar Bank tavakkalchiliklarini boshqarish departamenti bilan kelishiladi. Ushbu kelishuv Qo‘mita majlisi bayonnomasida aks ettirilishi lozim.

18. Qo‘mita majlisi qarorlari bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi va unda quyidagilar qayd etiladi:

- a) Qo‘mita majlisi o‘tkazilgan joy va sana;
- b) majlisda qatnashgan Qo‘mita a’zolarining shaxsiy tarkibi;
- d) Qo‘mita majlisiga taklif etilgan shaxslar;
- e) Qo‘mita majlisining kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- f) Qo‘mita tomonidan qabul qilingan qarorlar.

Qo‘mita majlisi bayonnomasida boshqa ma’lumotlar ham aks ettirilishi mumkin.

Qo‘mita majlisi bayonnomasi Qo‘mitaning majlisda raislik qiluvchgi va qatnashuvchi a’zolari tomonidan imzolanadi.

19. Qo‘mita majlisining kun tartibiga kiritilgan masala hujjatlar to ‘plash va majlis bayonnomasi loyihasini tayyorlash kun tartibidagi masalasi bo‘yicha mas’ul bo‘lgan Bosh bank tarkibiy tuzilmasi tomonidan tayyorlanadi.

20. Qo‘mita majlisining bayonnomasi G‘aznachilik departamenti tomonidan varaqlari raqamlangan, ip bilan tikilgan, Bank boshqaruvi raisi o‘ribbosari va G‘aznachilik departamenti direktorining imzolari hamda asosiy muhr bilan tasdiqlangan maxsus jurnalda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

21. Qo‘mita majlisi bayonnomasi bir nusxada tuziladi, u imzolangandan keyin uning uchun tayyorlangan materiallar ilova qilingan holda Qo‘mitaning ishchi organida – G‘aznachilik departamentida saqlanadi.

Qo‘mita majlisi bayonnomasi nusxasi Qo‘mitaning ishchi organi – G‘aznachilik departamenti tomonidan uning ijrosi uchun mas’ul Bosh bank tarkibiy tuzilmasi yoki bank xizmatlari ofisiga yetkaziladi.

7-§. Bank boshqaruvi va Bankning kuzatuv kengashiga hisobot berish

22. Qo‘mita har oyda Bank boshqaruvi va Bankning kuzatuv kengashiga Bankning likvidlilik pozitsiyasi holati va likvidlilikni yaxshilash bo‘yicha ko‘rilgan choralar yuzasidan hisobot taqdim etadi.

8-§. Yakuniy qoidalar

23. Qo‘mitaning qarori va unga oid materiallar, shuningdek ushbu komissiya a’zolarining fikrlari maxfiy hisoblanadi va Qo‘mita ruxsatisiz oshkor etilishi mumkin emas.

24. Qo‘mita majlisiga taklif etilgan Bank xodimlari ushbu Nizomning 23-bandida qayd etilgan maxfiy ma’lumotlarni oshkor etganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

25. Qo‘mita majlisining kun tartibiga kiritilgan masalaga mas’ul bo‘lgan Bosh bank tarkibiy tuzilmasi ushbu masala bo‘yicha xujjatva ma’lumotlar Qo‘mita a’zolariga o‘z vaqtida yetkazilishi uchun javobgardir.

26. G‘aznachilik departamenti Qo‘mitaning ishchi organi sifatida kun tartibiga kiritilgan masalalar bo‘yicha materiallarni Qo‘mita a’zolariga, Qo‘mita majlisi bayonnomasini uning bajarilishi uchun mas’ul bo‘lgan bank x’izmatlari ofisi yoki Bosh bank tarkibiy tuzilmasiga o‘z vaqtida yetkazilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Boshqaruв raisi v.v.b.

K.Gabbazov